



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI REKTORINING
BUYRUG‘I**

2025 yil “24” dekabr

№01-8-08/348-son

Toshkent sh.

**2026/2027 o‘quv yili 2-3-kurs bakalavriat
ta’lim yo‘nalishi (2-kurs magistratura
mutaxassisligi) uchun ta’lim granti sonini
to‘liq va to‘liq bo‘lmagan ta’lim grantiga
ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2025-yil 10-martdagi 149-sonli qarorida hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 25-martdagi 117-son buyrug‘i 2b bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. 2026/2027 o‘quv yili 2-3-kurs bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (2-kurs magistratura mutaxassisligi) uchun ta’lim granti soni talabalar sonidan kelib chiqib, ta’lim tili va kurslar kesimida to‘liq ta’lim granti va to‘liq bo‘lmagan ta’lim grantiga ajratilishi, bunda to‘liq ta’lim granti – ta’lim granti bazaviy sonining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda hamda to‘liq bo‘lmagan ta’lim granti – ta’lim granti bazaviy sonining to‘liq ta’lim grantidan qolgan qismining ikki baravari miqdorida belgilanishi inobatga olinsin.

2. 2026/2027 o‘quv yili 2-kurs bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ta’lim granti soni to‘liq va to‘liq bo‘lmagan ta’lim grantiga ajratilishi 1-ilovaga muvofiq, 3-kurs bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ta’lim granti soni to‘liq va to‘liq bo‘lmagan ta’lim grantiga ajratilishi 2-ilovaga muvofiq, 2-kurs magistratura mutaxassisligi talabalari uchun ta’lim granti soni to‘liq va to‘liq bo‘lmagan ta’lim grantiga ajratilishi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor X.Kamilova mas’ullar bilan birgalikda 26-dekabr qadar 2026/2027 o‘quv yili 2- va 3-kurs bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari hamda 2-kurs magistratura mutaxassisliklari uchun ta’lim granti sonini to‘liq ta’lim granti va to‘liq bo‘lmagan ta’lim grantiga ajratilishi va ularining o‘zaro nisbatini Institutning rasmiy veb-saytida e’lon qilinishini ta’minlasin.

4. Ushbu buyruqni ko‘paytirib, mas’ul shaxslarga yetkazish vazifasi devonxona va arxiv bo‘limi mudiri D.Mirzanazarova zimmasiga yuklansin.

5. Mazkur buyruqning ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Birinchi prorektor



B.Nasimov